



**IBROHIM G'AFUROV TARJIMALARIDA SO'Z TANLASH MAHORATI:
ERNEST XEMINGUEYNING CHOL VA DENGIZ ASARI TARJIMASI
MISOLIDA**

Andaqulova Muazzam Norali qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU, tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mohir tarjimon Ibrohim G'afurovning jahon adabiyoti durdonalaridan biri – Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asari tarjimasidagi so'z tanlash mahoratini tahlil qilingan. Tadqiqotda tarjimonning leksik-uslubiy yondashuvi, xususan, Xemingueyning minimalistik uslubini o'zbek tilining boy va rangin ifodalari orqali berishda qo'llagan funksional ekvivalentlik, kompensatsiya va modulyatsiya kabi strategiyalari qiyosiy tahlil qilingan. Asosiy e'tibor tarjima jarayonida yuzaga keladigan madaniy realiyalar, metaforik iboralar va qahramon ruhiyatini aks ettiruvchi ekspressiv so'zlarni tanlash jarayoniga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarjima, so'z tanlash mahorati, leksik transformatsiya, funksional ekvivalentlik, kompensatsiya, modulyatsiya, madaniy realiya, metaforik ibora, badiiy uslub.*

Kirish: Jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga o'girish milliy madaniyatimizni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tarjimon shaxsi va uning individual uslubi asosiy o'rin tutadi. Ibrohim G'afurov – o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi sohasidagi yirik arbob bo'lishi bilan birga, iste'dodli tarjimon sifatida ham o'z izini qoldirgan ijodkordir. U tarjima sohasidagi sermahsul mehnati, poetik asarlarni jonli, ohangdor va milliy ruhda o'zbek tiliga ko'chira olganligi bilan ajralib turadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, har bir professional tarjimonda ma'lum bir yozuvchining so'z tanlash falsafasi mavjud bo'ladi. Arobova G.S.ning fikriga ko'ra I.G'afurov tarjimalarida esa nafaqat so'z tanlash falsafasi, balki muallif uslubini saqlab qolish, asarning ruhiy holatini, estetik



ohangini milliy tafakkur mezonlariga mos holda ifodalashga intilish ustuvor o‘rin tutadi¹. Darhaqiqat, Ibrohim G‘ofurov tarjimalarida so‘z tanlash jarayoni oddiy lingvistik moslashtirish bilan cheklanmaydi. Tarjimon asarning ruhiy-hissiy kayfiyatini, muallif uslubidagi nozik ohanglarni va estetik yukni milliy tafakkurga mos holda qayta yaratishga alohida e‘tibor qaratadi. Aynan mana shu ijodiy yondashuv I. G‘ofurov tarjimalarini o‘zbek kitobxoniga yaqinlashtiradi va asarning badiiy qiymatini to‘liq his etish imkonini beradi. Ayniqsa, Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asari kabi minimal leksika bilan chuqur falsafiy ma’no berilgan asarlarni tarjima qilishda tarjimonning so‘z tanlash mahorati yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Misol uchun quyidagilarga qaraylik:

“Keep warm old man” → “Ehtiyot bo‘l qariya, tag‘in shamollab qolma.”

Bu gap oddiy so‘zlar bilan tarjima qilingan lekin asl ma’noda ham, hissiy ohangda ham ma’no yetkazilgan. Bu I.G‘ofurovning so‘z tanlashda oddiy leksik moslik hamda estetik ruhiyatni saqlashga harakat qilganini ko‘rsatadi. Keyingi tarjimani ko‘radigan bo‘lsak:

“Age is my alarm clock” → “Men uchun qarilikning o‘zi qo‘ng‘iroq soat.”

Bu inglizchada obrazli ibora, “qarilik - mening uyg‘otuvchi soatim” degan ma’noni bildiradi. I. G‘ofurov esa “qarilikning o‘zi qo‘ng‘iroq soat” deb tarjima qilgan. Bu yerda tarjimon metaforaning ramziy ma’nosini saqlagan lekin uni o‘zbek tilida tabiiy qilib ifodalay olgan. Bundan tashqari quyidagi misol ham tarjimon mahoratini ko‘rsatishda alohida rol o‘ynaydi:

“You're with a lucky boat” → “Sen baxti chopgan qayiqda ov qilyapsan.”

“lucky boat” degan ibora bevosita “omadli qayiq” ma’nosini beradi, lekin I. G‘ofurov “baxti chopgan qayiq” deb tarjima qilgan - “baxti chopgan” iborasi o‘zbek tilda ramziy ma’noda boyroq. Bu tarjimonning so‘z tanlash mahorati va estetik yondashuvi borligini ko‘rsatadi.

¹ Arabova G.S. Tarjimada milliy mintaqaviy xususiyatlarni ifoda etish // *Modern Education and Development*. – Toshkent, 2025. – P.177-185.



Ibrohim G'ofurov tarjimalarining o'ziga xos jihatlaridan biri milliy til imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solganidir. U o'zbek tilining poetik salohiyatiga ishonib, tarjimada milliy urf, xalqona iboralar, maqollar, fonetik musiqiylikdan keng foydalangan. Bundan tashqari, tarjimaning badiiy jihatdan nafis, estetik jihatdan mukammal va ma'naviy jihatdan boyligi ham boshqa asarlardan yaqqol ajralib turishiga imkon beradi. Tarjima faqat so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilishi emas, balki asarning ichki dunyosi, muallif ruhi, ma'naviy-falsafiy qatlamlari bilan birga o'zlashtirilgan holda yetkazilishidir. Shuning uchun ham uning tarjimalari hayotiy, ohangdor va adabiy mazmun bilan to'yingan. Ibrohim G'ofurov tarjima jarayonida muallif uslubini qayta yaratish, ruhiy holatlarni milliy obrazlar bilan uyg'unlashtirish, har bir so'z, ibora va gap qurilishida san'atkorona yondashuvga e'tibor qaratgan.

Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asarida insonning tabiat bilan munosabati, azaliy kurashuvchan tabiati va ma'naviy jasorati ramziy obrazlar orqali ifodalangan. Qosimova A.M.ning ta'kidlashicha Xemingueyning qisqa va sodda jumalarga asoslangan minimalistik uslubi uning asarlarini tarjima qilishni osonlashtirgandek tuyulsada, aslida tarjimondan chuqur nazariy bilim va ijodiy yondashuvni talab qilgan². Haqiqatdan ham, Xemingueyning minimalistik uslubi bir qarashda sodda va yengil ko'ringan bo'lsa-da, aslida uning qisqa jumllarida teran falsafa, ramziy ma'no va kuchli ruhiy holat yashiringan. Shu boisdan bunday matnlarni tarjima qilish, ayniqsa "Chol va dengiz" singari ramziy qatlamlarga boy asarlarda, tarjimondan faqat lingvistik bilim emas, balki badiiy tafakkur, nazariy tayyorgarlik va ijodiy mas'uliyatni ham talab qiladi. Asarni tarjima qilish jarayonida I. G'ofurov so'zma-so'z, erkin va moslashtirilgan tarjima usullarini muvofiqlashtirib qo'llab, original matnning mazmuni, uslubi va ramziy ma'nolarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Masalan:

Moslashtirilgan tarjima:

²Qosimova A.M. Tarjima usullari: Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asari misolida // *Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research*. ISSN: 3060-4745. – Vol 1, Issue 5, – P.18-22.



Asardagi *“it looked like the flag of permanent defeat”* gapi *“.... yaksoni chiqqan polkning yaloviga o ‘xshaydi”* deb tarjima qilingan.

Erkin tarjima:

“I thanked him already, you don’t need to thank him.” - “Hotirjam bo’l men uni rozi qildim.”

Shuningdek, asardagi ramziy obrazlar, masalan, chol, dengiz va baliq, tarjima jarayonida alohida e’tibor talab qiladi. Ushbu ramzlarning ma’nosini saqlash, ular orqali ifodalangan falsafiy mazmunni o’quvchiga to’g’ri yetkazish tarjimonning ijodiy va nazariy bilimlariga bog’liq. Tarjima nazariyasining amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish nafaqat badiiy tarjima jarayonining sifati oshishiga, balki madaniyatlararo muloqotning yanada samarali bo’lishiga xizmat qiladi. Shu sababli, tarjima jarayonida ijodiy va ilmiy yondashuvni uyg’unlashtirish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, Ibrohim G’ofurovning *“Chol va dengiz”* tarjimasida so’z tanlash mahorati ayniqsa yorqin namoyon bo’ladi. U Xemingueyning minimalistik, sodda, ammo teran ma’noli uslubini o’zbek tilining tabiiy, ohangdor va obrazli vositalari orqali muvaffaqiyatli qayta yaratadi. Tarjimon funksional ekvivalentlik, modulyatsiya va kompensatsiya kabi usullardan to’g’ri foydalanib, original matnning ruhiy holati, ramziy qatlamlari va badiiy ohangini saqlab qoladi. Natijada G’ofurov tarjimasi mazmunan aniq, usluban ravon va milliy badiiy didga mos holda yaratilgan bo’lib, Xemingueyning asarini o’zbek kitobxonga ta’sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. Mahmudova S.** Ibrohim G’afurovning so’z yaratish mahoratiga doir // *Translation Forum – 2022: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.* – Vol. 2, Special Issue 28. – Toshkent, 2022. – B. 139–145.
- 2. Arabova G.S.** Tarjimada milliy mintaqaviy xususiyatlarni ifoda etish // *Modern Education and Development.* – Toshkent, 2025. – P.177-185.
- 3. Qosimova A.M.** Tarjima usullari: Ernest Xemingueyning *“Chol va dengiz”* asari misolida // *Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research.* ISSN: 3060-4745. – Vol 1, Issue 5, – P.18-22.



4. I.G'ofurov. Tarjimaning iztiroblari. — Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2001. — 240 b.
5. **G'ofurov I.** Milliy mentalitet va tarjima // *O'zbek tili va adabiyoti*, Toshkent, 2012, №5, B.5-16.